



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA "BOSHLANG'ICH TA'LIM MENEJMENTI" FANINI O'QITISHDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR AMALIYOTGA JORIY ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19212988>

Xudayberdiyeva Dilafruz Abidovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, daxudayberdiyeva@gmail.com

Matrasulova Moxinur Ulug'bek qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida kompetensiyaviy-modul yondashuv, keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, simulyatsiya, flipped classroom va design thinking texnologiyalarining samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, raqamli monitoring va learning analytics orqali ta'lim natijalarini baholash mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli qo'llash talabalarning boshqaruv, analitik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tayanch so'zlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, simulyatsiya, flipped classroom, design thinking, learning analytics

Аннотация: В статье разработаны методические рекомендации по внедрению современных педагогических технологий в преподавание дисциплины «Менеджмент начального образования» в высших учебных заведениях. На основе результатов исследования обоснована эффективность компетентностно-модульного подхода, технологии кейс-стади, проектного обучения, симуляции, flipped classroom и design thinking. Особое внимание уделено цифровому мониторингу и learning analytics как инструментам оценки результатов обучения. Доказано, что системное применение современных технологий способствует развитию управленческих, аналитических и коммуникативных компетенций студентов.

Ключевые слова: современные педагогические технологии, компетентностный подход, кейс-стади, проектное обучение, симуляция, flipped classroom, design thinking, learning analytics



Abstract: *This article presents methodological recommendations for implementing advanced pedagogical technologies in teaching the subject “Primary Education Management” in higher education institutions. The study substantiates the effectiveness of the competence-based modular approach, case-study, project-based learning, simulation, flipped classroom, and design thinking technologies. Special attention is paid to digital monitoring and learning analytics as tools for assessing educational outcomes. The research proves that systematic use of modern technologies contributes to the development of students’ managerial, analytical, and communicative competencies.*

Keywords: *modern pedagogical technologies, competence-based approach, case study, project-based learning, simulation, flipped classroom, design thinking, learning analytics*

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli va maqsadli qo‘llash talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi. Ayniqsa, boshqaruv, tahliliy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarning o‘shish dinamikasi innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayonining amaliy ahamiyatini tasdiqladi. Shu bois “Boshlang‘ich ta‘lim menejmenti” fanini o‘qitish jarayonini an‘anaviy bilim berishga yo‘naltirilgan modeldan kompetensiyaga yo‘naltirilgan, interaktiv hamda raqamli boshqaruv faoliyatini modellashtiruvchi ta‘lim modeliga o‘tkazish zaruriyati ilmiy jihatdan asoslandi. Bunday yondashuv talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini kengaytiradi, balki ularni real boshqaruv vaziyatlarida qo‘llay olish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashda ta‘lim natijalarining kafolatlanganligi, tizimlilik, izchillik va qayta aloqa tamoyillariga amal qilish zarurligi V.P. Bospalko

tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, ushbu tamoyillar fanni o‘qitishda metodik asos sifatida qabul qilindi⁵⁴. Shu bilan birga, ta‘lim jarayonini modullashtirish, har bir modul uchun mos texnologiyani tanlash hamda natijalarni kompetensiyaga yo‘naltirilgan baholash tizimi orqali aniqlash mazkur modelning samaradorligini ta‘minlaydi.


Taklif etilayotgan metodik yondashuvda ta‘lim mazmuni boshqaruv faoliyatining asosiy komponentlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etiladi. Jumladan, keys-stadi texnologiyasi orqali boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish, loyiha asosida o‘qitish orqali strategik rejalashtirish, simulyatsiya va rol o‘yinlari orqali qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, raqamli monitoring va learning analytics orqali ta‘lim natijalarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon talabalarning mustaqil fikrlashi, jamoaviy ishlashi hamda reflektiv faoliyatini rivojlantiradi.

⁵⁴ Беспалько В.П. Педагогические технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 56 с.



Quyida keltirilgan chizma mazkur fanni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliy joriy etishning izchil bosqichlarini aks ettiradi. Unda fan mazmunini kompetensiyaviy-modul asosida qayta loyihalashdan boshlab, keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, raqamli monitoring, simulyatsiya, flipped classroom, design thinking texnologiyalarini qo'llash hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash modeligacha bo'lgan jarayonlar o'zaro

bog'liq holda tasvirlangan. Mazkur model ta'lim jarayonining tizimli tashkil etilishini, metodik izchilligini va kutilayotgan natijalarga erishish mexanizmlarini ifodalaydi.





1-rasm. “Boshlang‘ich ta‘lim menejmenti” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning metodik modeli

Ushbu modelning markazida talaba shaxsiga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv turadi. Modelning yuqori qismida fan mazmunini qayta loyihalash bosqichi joylashgan bo‘lib, bu bosqich ta‘limning maqsad va natijalarini aniqlashga xizmat qiladi. Keyingi bosqichlarda esa zamonaviy texnologiyalar ketma-ketlikda joriy etilib, ta‘lim jarayoni amaliy boshqaruv faoliyatiga yaqinlashtiriladi. Yakuniy bosqichda kompetensiyaga yo‘naltirilgan baholash modeli orqali erishilgan natijalar tahlil qilinadi va kutilayotgan natijalar aniqlanadi. Mazkur chizma ta‘lim

jarayonining mantiqiy tuzilishini, texnologiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

Shunday qilib, taklif etilgan metodik model “Boshlang‘ich ta‘lim menejmenti” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi hamda oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishning ilmiy-metodik asosini yaratadi. Fan quyidagi modullarga ajratilishi tavsiya etiladi:

1-jadval

“Boshlang‘ich ta‘lim menejmenti” fanining tavsiya etilayotgan kompetensiyaviy-modul tuzilmasi va mos pedagogik texnologiyalar

Modul nomi	Shakllantiriladigan kompetensiya	Texnologiya
Ta‘lim menejmentining nazariy asoslari	Tahliliy kompetensiya	Flipped classroom + microlearning
Umumta‘lim tashkiloti boshqaruvi va strategik rejalashtirish	Strategik kompetensiya	Project-based learning
Ta‘lim sifatini monitoring qilish	Raqamli kompetensiya	Learning analytics, LMS
Pedagogik jamoani boshqarish	Kommunikativ kompetensiya	Simulyatsiya, rol o‘yinlari
Boshqaruv qarorlarini qabul qilish	Boshqaruv kompetensiyasi	Keys-stadi, design thinking

“Boshlang‘ich ta‘lim menejmenti” fanining tavsiya etilayotgan kompetensiyaviy-modul tuzilmasi talabalarda



ketma-ketligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Keys-stadi texnologiyasini boshqaruv vaziyatlari asosida joriy etishda esa quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilishi tavsiya etiladi:


- o'qituvchilar faoliyatini baholash;
- ta'lim sifatini monitoring qilish;
- nizoli vaziyatlarni boshqarish;
- resurslarni taqsimlash;
- ota-onalar bilan hamkorlik.

Keys bilan
ishlash
bosqichlari:

- 1.Vaziyat tahlili
- 2.Muammoni aniqlash
- 3.Qaror variantlarini ishlab chiqish
- 4.Eng optimal strategiyani tanlash
- 5.Natijani baholash

Bu jarayon talabalarning tanqidiy fikrlashini va boshqaruv qarorlarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyiha asosida o'qitish modelida talabalar quyidagi loyihalarni ishlab chiqish mumkin:



Loyiha ishlari **Agile yondashuvi** asosida tashkil etiladi:

Haftalar	Faoliyat
1-4-hafta	Muammo va maqsadni aniqlash
5-8-hafta	Ma'lumot to'plash va tahlil
9-12-hafta	Strategiya ishlab chiqish
13-15-hafta	Taqdimot va refleksiya



Loyiha asosida o'qitish modelida talabalar "Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fanining mazmunidan kelib chiqib, maktab rivojlanish dasturini ishlab chiqish, ta'lim sifatini monitoring qilish tizimini yaratish, pedagogik jamoani boshqarish strategiyasini loyihalash hamda raqamli boshqaruv platformasi konsepsiyasini ishlab chiqish kabi amaliy loyihalarni bajarishlari mumkin. Ushbu loyihalar talabalarning nazariy bilimlarini real boshqaruv vaziyatlari bilan integratsiyalashga xizmat qiladi.

Loyiha ishlari Agile yondashuvi asosida tashkil etilib, har bir bosqichda aniq maqsad, vazifa va kutilayotgan natijalar belgilanadi. Avval muammo va maqsad aniqlanadi, keyin zarur ma'lumotlar to'planib tahlil qilinadi, so'ng strategik yechim ishlab chiqiladi va yakunda taqdimot hamda refleksiya bosqichi amalga oshiriladi. Bunday bosqichma-bosqich tashkil etilgan loyiha faoliyati talabalarda tizimli fikrlashni, vaqtni boshqarish ko'nikmasini hamda jamoaviy hamkorlikni shakllantiradi.

Mazkur model strategik rejalashtirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va jamoada samarali ishlash kompetensiyalarini kompleks rivojlantiradi. Shu bilan birga, refleksiya bosqichi orqali talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada loyiha asosida o'qitish modeli bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli monitoring va learning analytics modelida raqamli boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish uchun:

- LMS platformalarda baholash;
- dashboard orqali o'quv natijalarini vizuallashtirish;
- talaba faolligini tahlil qilish talab etiladi.

Tavsiya etiladigan indikatorlar:

Indikator	Mazmuni
Faollik indeksi	Onlayn topshiriqlarni bajarish darajasi
Hamkorlik indeksi	Guruhli ishlarda ishtirok
Refleksiya indeksi	O'z faoliyatini tahlil qilish
Qaror sifati indeksi	Keys yechimlarining asoslanganligi

Bu ko'rsatkichlar asosida individual pedagogik yordam ko'rsatish mumkin.

Simulyatsiya va rol o'yinlari texnologiyasi "Boshlang'ich ta'lim


menejmenti" fanini amaliy boshqaruv faoliyatiga yaqinlashtirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali pedagogik kengash



yig'ilishi, ota-onalar bilan muloqot, nizoli vaziyatlarni hal etish hamda ta'lim sifatini tahlil qilish kabi real boshqaruv jarayonlari modellashtiriladi. Talabalar maktab direktori, direktor o'rinbosari, metod birlashma rahbari, psixolog va o'qituvchi rollarini bajarish orqali boshqaruv jarayonining turli funksiyalarini amalda sinab ko'radilar. Bu esa ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi hamda nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Rol o'yinlari jarayonida talabalar jamoaviy qaror qabul qilish, muloqot olib

borish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va muqobil yechimlar ishlab chiqishni o'rganadilar. Shuningdek, refleksiya bosqichi orqali o'z faoliyatlarini baholab, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada kommunikativ, boshqaruv va reflektiv kompetensiyalar kompleks rivojlanib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining professional tayyorgarligi mustahkamlanadi. Ko'rilayotgan mavzu bo'yicha misol tariqasida quyidagi boshqaruv vaziyatlari modellashtirilishi mumkin:



Simulyatsiya va rol o'yinlari texnologiyasini qo'llash natijasida kommunikativ, boshqaruv va reflektiv kompetensiyalar kompleks rivojlanadi.

Flipped classroom (teskari sinf) modeli "Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fanini o'qitishda nazariy va amaliy faoliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan zamonaviy pedagogik yondashuv hisoblanadi. Mazkur modelda an'anaviy dars tuzilmasi o'zgartirilib, nazariy materiallar (video ma'ruzalar, infografikalar, mikro-modullar, elektron qo'llanmalar) talabalar tomonidan auditoriyadan tashqarida mustaqil

o'rganiladi. Bu jarayon talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtiradi, o'quv materialini o'z tezligida o'zlashtirish imkonini beradi hamda raqamli savodxonlikni rivojlantiradi.

Auditoriya mashg'ulotlari esa nazariy bilimlarni takrorlashga emas, balki amaliy faoliyatga yo'naltiriladi. Jumladan, keys tahlili, loyiha muhokamasi, simulyatsiya va rol o'yinlari orqali talabalar boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish, qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash va strategik rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'qituvchi esa ma'lumot




beruvchi emas, balki fasilitator va maslahatchi rolini bajaradi, bu esa talabalarning faol subyekt sifatida ta'lim jarayonida ishtirok etishini ta'minlaydi.


Flipped classroom modeli auditoriya vaqtini samarali tashkil etish, muammoli vaziyatlarni chuqur tahlil qilish va reflektiv faoliyatni yo'lga qo'yish

imkonini beradi. Natijada talabalarning tahliliy, kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalari rivojlanadi, o'quv jarayoni esa interaktiv va amaliy yo'naltirilgan tus oladi. Bu model auditoriya vaqtini amaliy faoliyatga yo'naltiradi.

Nazariy materiallar:



Auditoriyada:



Design thinking texnologiyasi

“Boshlang'ich ta'lim menejmenti” fanida muammolarni ijodiy va tizimli hal etishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu jarayon empatiya bosqichida muammoni chuqur tushunishdan boshlanib, muammoni aniq ifodalash, turli g'oyalarni ishlab chiqish, prototip yaratish va uni amaliy sinovdan o'tkazish bosqichlarini qamrab oladi. Masalan, “Maktabda o'quvchilar motivatsiyasini oshirish strategiyasi” loyihasida talabalar mavjud holatni tahlil qiladi, muammoning sabablarini aniqlaydi va innovatsion yechim

variantlarini ishlab chiqadi. Keyingi bosqichda tanlangan g'oya asosida model yaratiladi hamda sinovdan o'tkaziladi. Bu jarayon talabalarning tahliliy, kreativ va boshqaruv fikrlashini rivojlantiradi. Natijada ular real ta'lim muhitida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash modeli talabalarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki amaliy faoliyat jarayonida shakllangan kasbiy kompetensiyalarini ham aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu modelda baholash



vositalari aniq kompetensiyalar bilan bog'langan holda qo'llaniladi. Jumladan, portfolio talabani raqamli savodxonligi va reflektiv faoliyatini, keys yechimi tahliliy fikrlash hamda boshqaruv qarorlarini asoslash ko'nikmasini, loyiha himoyasi strategik rejalashtirish va kommunikativ kompetensiyalarni, simulyatsiya natijalari esa muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish

qobiliyatini baholash imkonini beradi. Bunday yondashuv baholashning shaffofligini ta'minlaydi, talabani individual rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi va o'quv jarayonini natijaga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi. Natijada baholash jarayoni ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Baholash vositalari:

Vosita	Baholanadigan kompetensiya
Portfolio	Raqamli va reflektiv
Keys yechimi	Tahliliy va boshqaruv
Loyiha himoyasi	Strategik va kommunikativ
Simulyatsiya natijasi	Qaror qabul qilish

Yuqoridagilardan kelib chiqib, talabalar bilimni reyting baholashda quyidagi formula o'rinli hisoblanadi:

$$\text{Umumiy ball} = 0.3 (\text{loyiha}) + 0.2 (\text{keys}) + 0.2 (\text{simulyatsiya}) + 0.3 (\text{portfolio})$$

Bunda zamonaviy ta'limning metodik modeli quyidagi komponentlardan iborat bo'ladi:



Bu model ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

“Boshlang'ich ta'lim menejmenti” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish talabalarining kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, simulyatsiya, learning analytics, flipped classroom, design thinking kabi texnologiyalarni integratsiyalash natijasida ta'lim jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan boshqaruv modeli asosida tashkil etiladi. Bu yondashuv bo'lajak boshlang'ich ta'lim tashkilotchilarining professional tayyorgarligini oshiradi hamda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

2-jadval

Tadqiqot natijalariga muvofiq tavsiyalar jadvali

Eksperiment natijasi	Aniqlangan muammo	Tavsiya etiladigan	Kutilayotgan natija
----------------------	-------------------	--------------------	---------------------



		texnologiya	
Past darajadagi kompetensiyalar kamaydi	Boshlang'ich tahliliy ko'nikmalar past	Keys-stadi	Muammoli vaziyatni tahlil qilish rivojlanadi
Yuqori darajadagi kompetensiya oshdi	Qaror qabul qilish tajribasi yetishmas edi	Simulyatsiya	Boshqaruv kompetensiyasi shakllanadi
O'rta daraja yuqori ulushni tashkil etdi	Strategik fikrlash yetarli emas	Loyiha asosida o'qitish	Strategik rejalashtirish rivojlanadi
Raqamli kompetensiya oshdi	Raqamli monitoring yo'q edi	Learning analytics	Raqamli boshqaruv ko'nikmasi shakllanadi
Kommunikativ kompetensiya rivojlandi	Jamoaviy ish sust edi	Peer learning	Hamkorlik ko'nikmalari oshadi
Motivatsiya oshdi	Passiv o'qitish ustun edi	Flipped classroom	Faol o'quv muhit shakllanadi

Mazkur jadval tadqiqot natijalari asosida aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Unda past darajadagi kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keys-stadi va simulyatsiya metodlari tavsiya etilib, bu orqali tahliliy fikrlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan. Strategik fikrlashning yetarli darajada rivojlanmaganligi loyiha asosida o'qitish orqali bartaraf etilishi, raqamli monitoringning yo'qligi esa learning analytics texnologiyasi bilan to'ldirilishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, jamoaviy ishning sustligi peer learning yondashuvi orqali faollashtirilishi, passiv o'qitish o'rniga flipped classroom modeli

qo'llanishi orqali faol o'quv muhiti yaratilishi ta'kidlangan. Jadval natijalari innovatsion texnologiyalarni maqsadli qo'llash kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish "Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fanini amaliy boshqaruv modeliga aylantiradi. Keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, simulyatsiya, learning analytics va blended learning integratsiyasi natijasida talabalarning boshqaruv, tahliliy, strategik, kommunikativ va raqamli kompetensiyalari kompleks rivojlanadi. Eksperiment natijalari ushbu yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Taklif etilgan model oliy ta'lim muassasalarida fanni zamonaviy



asosda tashkil etishning metodik mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Беспалько В.П. Педагогические технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 56 с.
2. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998.
3. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 1991.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006.
5. Yo‘ldoshev J. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.
6. Носкова Т.Н. Информационные технологии в образовании. – СПб.: РГПУ, 2007.
7. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik ta’lim. – T.: Fan, 2015.
8. Moore M. Handbook of Distance Education. – New York: Routledge, 2013.